

O'ZBEKISTONDA MILLIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Shukurov Alisher

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy tadqiqot insituti kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan e'tibor, mustaqillik davrida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasidagi amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida so'z boradi

Kalit so'zlar: madaniyat, yoshlar, taraqqiyot, qaror, muassasa.

Аннотация:

В данной статье уделено внимание развитию культуры и санъ сохасига в Узбекистане, о реформах, которые были проведены в развитии культуры и сахасига в эпоху независимости

Ключевые слова: культура, молодежь, развитие, решение, институт.

Abstract:

This article talks about the attention paid to the sphere of culture and art in Uzbekistan, the reforms implemented in the development of the sphere of culture and art during the period of independence.

Key words: culture, youth, development, decision, institution.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikgacha bo'lgan so'nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmon mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Milliy madaniyatning boy o'tmishi biryoqlama o'rganilib, uning ko'pgina bebahol durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk yillardanoq jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlari hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrabavaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Davlat tili to'g'risida"gi (1989-yil 21-oktyabrdagi) qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil 29-avgust)ning qabul qilinishi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (1997-yil), O'zbekiston davlat konservatoriysi (2002-yil), O'zbek milliy akademik drama teatri (2002-yil), estrada musiqasini rivojlantirish to'g'risidagi va boshqa bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari

tiklanib, yubileyлari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning amaliy ifodasidir.

Mustaqillik yillarda o‘zbek milliy tarixi, O‘zbekiston xalqlari tarixini holisona ravishda o‘rganishga ustuvor ahamiyat berildi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday deydi: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, sa’nati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixini tag-tomirigacha nazar tashlaymiz”.¹

Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan: qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o‘rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlaming chop etilishi xalqimiz illiy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda; sho‘rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e’tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o‘yinlar, tarixiy me’morchilik san’ati, ko‘pgina an’anaviy ijod turlari tiklandi; xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabilar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O‘qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma’naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag‘ishlamoqda; diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta’mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta’minlamoqda; o‘zbek tilining davlat tili darajasiga ko‘tarilishi dilni quvontirmoqda. O‘z navbatida, jahon tillarini o‘rganish ehtiyoji bizni olamga “yuz tutishimiz”ga, jahon hamjamiatiga qo‘shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o‘zlashtirishimizga yordam bermoqda;

1991-yil 1-sentyabr kuni O‘zbekistonning Mustaqil deb e’lon qilinishi, milliy istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma’naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir ne’matki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy ma’naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e’tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi. O‘z navbatida, milliy madaniyatning taraqqiyoti har bir insonning zamonaviy taraqqiyot oqimiga qo‘silib ketishiga yordam berdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san’ati bo‘yicha qator ko‘rik-tanlovlар o‘tkazila boshlandi.

Xususan, 1992-yili Toshkent shahrida tanbur, sato, qo‘shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining “Asrlarga tengdosh navolar” deb nomlangan respublika ko‘rik-tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo‘g‘irchoq teatrлari jamoalarining ko‘rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san’atkorlar Jo‘raxon Sultonov,

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998. – 18-b.

Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janak Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining “Boqiy ovozlar” deb nomlangan ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Shu yili Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning Qo‘qonda o‘tkazilgan IX an’naviy ko‘rik tanlovi, lapar, yalla ijrochilarining Toshkent shahrida o‘tkazilgan XI an’naviy ko‘rik tanlovi milliy san’atimiz rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi. 1992-yil 28-avgustda “O‘zbekiston ijodkor yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni chiqdi. Natijada minglab iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni iste’dodini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratildi.

Xalq ijodi milliy amaliy san’atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo‘yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o‘tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalash da muhim omil bo‘lmoqda. Bu borada mamlakatimizda o‘tkazilayotgan rang-barang tadbirlar, jumladan, xalq hunarmandchiligi va tasviriy san’at ko‘riklari, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilar tanlovlari, “Alla ijrochilarining tanlovlari, folklor-etnografik ansambl lar festivallari, dorbozlar, an’naviy sirk san’ati, qo‘g‘irchoq teatri jamoalarining ko‘rik-tomoshalari, qadimiy qo‘shiqlar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi boshqa ko‘plab anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlar “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi”, “Vatan yagonadir, vatan bittadir”, “Yangi nomlar” va boshqa tanlovlaming o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos maqsad va vazifalari bor 1997-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida”gi PF1701-sonli Farmoni²⁶ qabul qilindi va respublikada madaniyat va san’at sohasidagi yuksalish yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi. 1998-yil O‘zbekistonda birinchi marta simfonik musiqa festivali o‘tkazildi va dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar qatnashdi. Sharq xalqlari milliy musiqa va qo‘sinq san’atining betakror namunalarini keng ko‘lamda targ‘ib qilish, milliy musiqiy an’analarni saqlab qolish va rivojlantirish, yosh avlod ongida san’atga muhabbat, go‘zallikni kuylash, asl insoniy qadriyatlar hissasini shakllantirish, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlikni mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’rifiy munosabatlar ko‘lamini dunyo darajasida kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagি 132-sonli qaroriga muvofiq, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali ta’sis etildi. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur festival har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida o‘tkaziladi. An’naviy “Sharq taronalari” musiqa festivali besh qit’a san’at vakillarini diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

1996-yilda “Umumjahon tabiiy va madaniy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. 1991-yilda Xivadagi “Ichan qal‘a”, 1993-yilda Buxoro tarixiy markazi, 2000-yilda Shahrisabz tarixiy markazi, 2001-yilda Samarqand “Samarqand – madaniyatlar chorrahasida” nomi bilan Umumjahon madaniy meroslari ro‘yxatiga kiritilgan. Bu o‘z-o‘zidan, yuqoridagi meroslarimiz-ni xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini ta‘minlashimizni taqozo qiladi. Bu borada nimalar qilishimiz lozim, degan savolga shunday javob bo‘ladiki, avvalo, sohani bilimdon mutaxassislar bilan to‘ldirish. Shu bilan birga, mavjud soha mutaxassislarini merosimizni xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini ta‘minlashga qayta tayyorlash, zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari va xalqaro andozalarga mos ravishda ishlash, shuningdek, xalqaro tajribalarni o‘rganib, sohaga tatbiq etish hozirgi paytdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

1992-yil 27-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi faoliyati va tuzilishini takomillashtirish to‘g‘risida”- gi qarori e’lon qilindi. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hokimligining “Viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 1993-yil 14-aprelda Respublika Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi san’at, madaniyat oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining talaba o‘quvchilari hamda o‘qituvchilari ishtirokida “Istiqlol jilolari” nomli yig‘ma konserti namoyish etildi. Bu konsertda yoshlar faollik bilan o‘z iqtidorlarini namoyish etdilar. 1995-yil dekabr oyidan boshlab mamlakatda “O‘zbekiston – Vatanim manim” mavzusidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e’lon qilingandan so‘ng yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi. 1996-yil 22-avgustda “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq bayrami haqida maxsus Farmon qabul qilindi. Bu ko‘rik-tanlov yoshlar madaniy-ma’naviy hayotida unitilmas voqeа bo‘lib, ular tomonidan zo‘r mammuniyat va ko‘tarinki ruh bilan qo’llab-quvvatlandi. Natijada O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi va “O‘zbekraqs” birlashmasi tashkil etildi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” kengashi, “Ta’lim markazi”, “O‘zbekkino”, “O‘zbekmuzey”, “O‘zbekteatr”, Milliy madaniy markazlar kabi ko‘plab madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma’naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo‘ldi. Mustaqillik yillarda o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlар “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi”, “Vatan yagonadir, vatan bittadir”, “Yangi nomlar” va boshqa tanlovlaming o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos maqsad va vazifalari bor 1997-yil

23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida”gi PF1701-sonli Farmoni²⁶ qabul qilindi va respublikada madaniyat va san’at sohasidagi yuksalish yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi. 1998-yil O‘zbekistonda birinchi

marta simfonik musiqa festivali o‘tkazildi va dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar qatnashdi. Sharq xalqlari milliy musiqa va qo‘sishq san’atining betakror namunalarini keng ko‘lamda targ‘ib qilish, milliy musiqiy an’analarni saqlab qolish va rivojlantirish, yosh avlod ongida san’atga muhabbat, go‘zallikni kuylash, asl insoniy qadriyatlar hissasini shakllantirish, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlikni mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’rifiy munosabatlar ko‘lamini dunyo darajasida kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagি 132-sonli qaroriga muvofiq, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali ta’sis etildi. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur festival har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida o‘tkaziladi. An’anaviy “Sharq taronalari” musiqa festivali besh qit’a san’at vakillarini diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

2000-yildan 2008-yilgacha 126 ta yosh iqtidorli fan yo‘nalishlarida 20 nafar, ta’lim yo‘nalishlarida 32 nafar, adabiyot yo‘nalishida 28 nafar, san’at yo‘nalishida 24 nafar, madaniyat yo‘nalishida 22 nafar, 2009-yildan 2022-yilgacha 227 nafar iqtidorli yosh qiz va ayollarimiz fan, ta’lim, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari bo‘yicha “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo‘ldi. Mazkur ko‘rik-tanlov yosh qizlarning ma’naviy jihatdan yetuk va vatanparvar bo‘lib tarbiyalanishlariga asos bo‘lib, ularning iqtidorini namoyon etishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sa’nat sohasidagi qobilyatli yoshlarga taqdim etiladigan Respublika “Nihol” mukofoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-avgustdagи 334-sonli Qaroriga asosan ta’sis etilgan. Tantanali taqdimot marosimi har yili musiqa konsert ko‘rinishida o‘tkaziladi. Yosh iste’dodlarni kashf etishda Prezident tashabbusi bilan ta’sis etilgan “Nihol” mukofotining o‘rni va ahamiyati g‘oyat katta.

O‘zbekistonda madaniyat, san’at, ilm-fan va sportni targ‘ib etish da 2004-yil mart oyida tashkil qilingan “O‘zbekiston madaniyati vasan’ati forumi” jamg‘armasi alohida o‘rinda turadi. Jamg‘arma o‘z oldiga ilm-fan, madaniyat va ta’limni rivojlantirishdek ezgu maqsadni qo‘ygan nodavlat tashkiloti bo‘lib, o‘tgan yillar davomida mamlakat madaniy hayotida o‘ziga xos voqeа bo‘lgan bir qator yirik loyixa va dasturlarni amalga oshirdi. Jamg‘arma turli ko‘rgazmalar, teatr va kino festivallari, xalqaro anjumanlar tashkil etish orqali O‘zbekiston madaniyati va sa’natini xalqaro maydonda e’tirof etilishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Jamg‘arma tomonidan o‘nlab loyhalar amalga oshirildi. Masalan, “Yangi avlod” bolalar ijodi festivali, “Navqiron O‘zbekiston” an’anaviy va zamonaviy san’at festivali va tez fursatda keng jamoatchilik e’tiboriga tushdi. Butun mamlakat miqiyosida tashkil etilayotgan “Kelajak ovozi” megatanlovi esa O‘zbekistonning minglab yoshlarini birlashtirmoqda. Madaniyat va san’atning turli yo‘nalishlarida yosh iqtidor egalarini kashf etmoqda. Jamg‘arma konsertlar, festivallar, ko‘rgazmalar tashkil etish barobarida Rossiya,

Yaponiya, Belgiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda o‘ndan ortiq xalqaro loyhalarni amalga oshirdi.

2004-yilda madaniyat va san’at saohasida yana bir muhim islohot amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 30-sentyabrdagi 455-son qarori qabul qilindi. Keyinchalik mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PQ-2778-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 7-apreldagi PQ-1091-son “Yagonasan, muqaddas Vatan respublika ko‘rik tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori mamlakatimiz madaniyati va san’ti, xususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa boldi. Bu ko‘rik-tanloving bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo‘lgan yoshlarimiz qalbida o‘z ona Vataniga bo‘lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug‘laydigan, qadr-qimmati, sha’ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo‘shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste’dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdan iborat bo‘ldi. Shu bois, ushbu ko‘rik-tanlovni o‘tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng avvalo, ajdodlarimiz merosini tiklash bo‘yicha qilinayotgan keng ko‘lamli ishlarmizni jahon hamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarmizni o‘rganish uchun dunyoning ko‘pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

Shuningdek mustaqillik sharofati ila yangi tuzilgan jamg‘armalar orasida Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg‘armasi, “Sog‘lom avlod uchun” xayriya jamg‘armasi, “Kamolot” yoshlar jamg‘armasi ijobiy natijalarga erishishdi. Ijodiy tashkilotlar orasida esa yozuvchilar, bastakorlar, me’morlar uyushmalarining faoliyati diqqatga sazovordir.

Keyingi yillarda milliy madaniyatimiz va san’atimizni rivojlantirish maqsadida istiqlol yillarida amalga oshirilgan ishlarning mazmun-mohiyatini tanqidiy tahlil qilish, chuqur o‘rganish va shu asosda boshqaruvtizimini qayta shakllantirish va takomillashtirish, bunda madaniyat va san’atning jamiyat siyosiy hayotida namoyon bo‘lishi hamda xalqimiz turmush tarzida tutgan ulkan roldan oqilona foydalanish kabi o‘ta muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozimligi kun tartibining asosiy masalasi sifatida ko‘rib chiqildi. Shunga ko‘ra davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, Prezident Farmoniga muvofiq uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi

Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etildi. 2017- yil 16-avgustda “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialini tashkil etish to‘g‘risida” Prezident qarorining imzolanishi mamlakatimiz madaniyati va san’ati tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. 2017-yil 16-oktyabrdan “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 18-oktyabrdan “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyunda “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmonlari imzolandi. 2017-yil 17-noyabr milliy madaniyatimiz solnomasining so‘nggi to‘rt yilligi tarixida unutilmas kunlardan biri bo‘ldi. Xuddi shu sanada Prezident Sh.Mirziyoyev “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror milliy madaniyatimiz timsollaridan biri bo‘lgan maqom san’ati istiqboli borasidagi tarixiy hujjat bo‘lib qolishi shubhasiz, albatta. Endi asjni soxtadan, haqiqiyini nusxadan ajratish vaqt keldi, oldi-qochdi, soxta qo‘schiqchimashshoqlarning usulsiz kuylariga chek qo‘yildi. Qarorda milliy maqom san’atini rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy kamolotda tutgan o‘rni, qadimiy milliy-ma’naviy qadriyatlar va an’analarni tiklash hamda boyitish, shuningdek, bozor munosabatlari sharoitida mumtoz san’atimiz taraqqiyotini davlat yo‘li bilan qo’llab-quvvatlash kabi juda muhim masalalar qamrab olingani soha istiqbolida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qarorga asosan mumtoz qo‘schiqchilik san’ati yo‘nalishida to‘planib qolgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o‘zbek maqom san’ati tarixini chuqr o‘rganib, ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, o‘quv uslubiy adabiyotlar chop etish, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichga ko‘tarish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati festivalini o’tkazish, “Eng yaxshi maqom xonandasi”, “Eng yaxshi maqom sozandasi”, “Eng yaxshi maqom ustozsi”, “Eng yaxshi maqom targ‘ibotchisi”, “Eng yosh maqomchi” kabi nominatsiyalar bo‘yicha mukofotlar ta’sis etish kabi qator vazifalar Maqom markazi zimmasiga yuklandi. Mamlakatimizda 2018-yilda ham madaniyat va san’atni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan yosh avlodni milliy ma’naviy qadriyatlarimiz, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatimizning noyob durdonasi bo‘lgan baxshichilik va dostonchilik san’atini rivojlantirish maqsadida Termiz shahrida Baxshilar maktabi tashkil etildi. Milliy madaniyatimizning jon tomiri bo‘lgan, avloddan avlodga o‘tib, sayqallanib, xalqimiz badiiy tafakkurining boy va eng qadimiy an’analari, so‘nmas ohanglarini o‘zida jamlagan, bir-biridan sara terma va dostonlarni butun salobati bilan asrlar

davomida asrab-avaylab kelayotgan, ona yurtga sadoqat, mehr-muhabbat, birodarlik va qahramonlikni, mardlik va jasoratni tarannum etuvchi baxshichilik san'atini qayta tiklash va ommalashtirish maqsadida Prezidentimizning “Xalqaro baxshichiliksan’ati festivalini o’tkazish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi (2018-yil 1-noyabr) va “Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi (2019-yil 14-may) qarorlari madaniy hayotimizdagi ulkan tarixiy voqeа bo‘ldi.

Xalq og‘zaki ijodining durdonasi bo‘lmish baxshichilik san'atini keng targ‘ib etish borasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi mavjud 233 ta madaniyat muassasalarida baxshichilik yo‘nalishi bo‘yicha sinf va to‘garaklar ochilib, 2042 nafar yoshlari jalb etildi. Go‘ro‘g‘li turkumidan o‘zbek xalq dostonlaridan saralangan “Oltin qoboq”, “Chambil qamali” va “Olamon bilan Qoramон” nomli dostonlar 1000 nusxadan chop etildi.

Ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Respublika qo‘g‘irchoq teatrлari, yosh rejissyorlarning “Debyut” ko‘rik festivali ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar o’tkazildi. Pyesalar tanlovlari o’tkazilib, g‘olib mualliflar taqdirlandi. Dramaturglarning bir necha yillik qalam haqqidan qarzdorlik bartaraf bo‘lishiga etilib, 41 nafar muallifga qalam haqi to‘lab berildi. Pandemiya sababli nisbatan og‘ir yil qaramay, teatrлarimiz ham o‘z vazifalarini sidqidildan bajarmoqda, ma’lum muddat masofadan ishslash tizimiga o‘tdi. Yil davomida repertuar rejaga kiritilgan spektakllarning deyarli 95 foizi sahnalashtirildi. Ulug‘ namoyandalarning xotira kechalari, taniqli san'atkorlarimizning ijodiy kechalari va benefislari o’tkazildi. Karantin bo‘lishiga qaramasdan teatrлar hamda O‘zbek davlat sirkining ijodiy xodimlari ishdan uzilmagan holda 2020-yil uchun rejorashtirilgan 22 ta gastrollarining 2 tasini jonli, qolgan 20 tasini respublika bo‘ylab onlayn amalga oshirdi.

Madaniyat va san'at sohasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida mustahkamlash borasida ham qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hunarmandchilik kengashining 2019-yilning 23-iyuldagи qaroriga ko‘ra Qo‘qon shahriga yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha Hunarmand-chilik shahri maqomi berilishiga sabab bo‘ldi. Bungacha jahoning turli mamlakatlaridagi 35 ta shahargina mazkur maqomga sazovor bo‘lgan ekan.

2020-yil 4-fevral o‘zbek madaniyati va san'ati tarixida shonli va unutilmas kunlardan biri bo‘ldi. Negaki, ayni shu kun bir kunda bir yo‘la ikkita “Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-4584-son hamda “Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-4585-son qarorlarini imzolandi³⁰. Mazkur hujjatlarda milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va

ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish kabi maqsadlar belgilanib, ularga erishish yo'llari aniq ko'rsatib berildi.

2021-yil 7-aprelda imzolangan “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan o‘tkazilgan “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali o‘zbek kinosining jahon kinosi bilan sintezlashuvining aksi sifatida namoyon bo‘ldi. Respublikada opera va balet san’atini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida milliy opera va balet san’atida ustoz-shogird an’analari va mahorat maktablarini rivojlantirish, opera va balet san’atidagi iste’dodli va yuqori malakali ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish, ana shunday maktab yaratgan ijodkorlarni davlat byudjeti hisobidan asosiy ish joyi orqali har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida qo‘srimcha rag‘batlantirib borish va boshqa chora-tadbirlar belgilandi.

Respublikamizda bugungi kunda 832 ta madaniyat markazlari faoliyat yuritadi, va bular havaskorlik san’atini rivojlantirishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu madaniyat markazlarida jami 4000 dan ziyod to‘garak mavjud bo‘lib ularda 52970 nafar havaskorlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shundan 37340 nafarini yoshlar tashkil etadi. Shuningdek, madaniyat markazlarida 482 ta xalq havaskorlik unvoniga ega etib bo‘lgan jamoalar mavjud bo‘lib, ushbu jamoalarga jami 5000 dan ortiq havaskor ishtirok kelmoqda. Shu ma’noda madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish, ularga zarur sharoitlarni yaratib berish muhim hisoblanadi. Bugungi kunga qadar 367 ta madaniyat markazlari ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi. Prezidentimizning chora-tadbirlar 2020-yil dasturining 26-maydagi Farmoni bilan tasdiqlangan 25-bandida Madaniyat vazirligiga madaniyat markazlari uchun yangi binolar qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash vazifasi yuklatilgan. Yurtimizda madaniyat va san’at ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Mazkur islohotlar ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasining hayotiy ro‘yobiga, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishga hissa qo’sham deb ayta olamiz. Har bir millat o‘z madaniyat va san’atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr-qimmati, dunyodagi obro‘-e’tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

O‘zbekiston milliy madaniyatini rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Milliy madaniyatni rivojlantirishda uning asosiy bosqichlarini tarixiylik tamoyili orqali o‘rganish;
- Respublikamizda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar bilan madaniyat markazlar faoliyati uzviyligini bog‘lash;
- Bugungi kunda respublikamizda o‘tkazilayotgan xalqaro hamda Respublika ko‘rik-tonlov va festivallarini yangicha tarzda tashkil qilish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish;
- Doimiy tarzda madaniyat borasida tashkil qilinayotgan konferensiya va semenarlarda faqatgina taniqli olimlardan tashqari ilmiy-tadqiqot institutlar ilmiy xodimlarini hamda barcha madaniyat muassasalaridan vakllar ishtirokini ta’minlash;
- Yuqoridaq faoliyatlarni umumlashtirgan holda ommaviy-axborot vositalarida keng targ‘ib etish;

Ushbu masalalar yurtimiz miqyosida tashkil qilinayotganligiga aminmiz. Biroq, bu jarayonlarning davomiyligi targ‘ibot va tashviqot ishlarining samarali tarzda olib borilmayotganligi natijalarning yuqori bo‘lmasligiga olib kelmoqda. Barcha oliy va o‘rta-maxsus ta’lim madaniyat muassasalarida milliy madaniyatni rivojlantirishning strukturaviy tuzilmalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish ushu jarayonning samarali natijalarga erishishda asosiy omil bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, beba ho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng O‘zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istiklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e’tibor berildi. Mustaqillik yillarda milliy kino, teatr, muzey san’atining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ular orqali o‘tmishni, tarixni ko‘rish, eslash, sezish, o‘rganish va shuning bilan birga o‘zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topish jarayoni jadal sur’atlar bilan amalga oshirildi. Shuningdek, o‘lkamiz tarixini, madaniyati va san’atini ommaga yetkazish yoshlarimizda tushuncha hosil qilish uchun “O‘zbekiston tarixi”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Navo” telekanali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillik aynan shunday ezgu ishlarni amalga oshirishga, madaniy rivojlanishga imkoniyat yaratib berdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlarning barchasi inson kelajagiga, ma’naviyatiga, mamlakatimiz yoshlari kamolotiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. – T.: Fan, 1990.

4. To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. – Toshkent, 2022.
5. Haydarov A. Milliy madaniyat – renessans poydevori // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. -- Toshkent, 2020.
6. Nazarbekov O. Yuksak e’tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so‘zi gazetasi. – Toshkent, 2022. – 4-b.

